

Ushbu o‘simliklardan yig‘malar, qaynatma, damlama, ekstrakt, sharbat, kukun, tabletka, bo‘tqa, infuzion eritma, vitaminlar va boshqa biologik faol moddalar bilan boyitilgan sirop, suspenziya va malham, fitochoylar shaklidagi dori vositalari ustida umuman olganda bu o‘simliklar ta’sir xususiyatlari tarkibi bo‘yicha ko‘pgina olimlar izlanishlar olib borishgan.

Xulosa. Mintaqamizda keng tarqalgan Zupturumdoshlar, Murakkabguldoshlar, Torondoshlar turkumlariga mansub o‘simliklarning keng farmakologik xususiyatga ega ekanliklarini e’tiborga olgan holda ulardan yangi zamonaviy dori vositalari ishlab chiqish va amaliyotda foydalanish bo‘yicha tadqiqotlar o‘tkazishni taqazo etadi. Chunki ushbu o‘simliklarda shifobaxshlik xususiyatlari bilan bir qatorda zaharlilik xususiyatlari ham mavjud ekanligi adabiyotlarda ma’lum.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.Hamidov.A. Nabiyev.M. Odilov.T. “O‘zbekiston o‘simliklar aniq lagichi” Toshkent 1987.
- 2.Imomaliyev.A. Zikiryoeyev.A. “O‘simliklar biokimyosi”. Toshkent 1978.
- 3.Izbosarov.U.Q. Izbosarov.Sh.U. “Shifobaxsh o‘simliklar”.
- 4.Muxtarov.M “Ming dardga davo” Nasaf nashriyoti 2009.
- 5.Jo‘rayeva.M.A. “Dorivor o‘simliklar atlas. Toshkent 2019.
- 6.Turova.A.D. “SSSRning Dorivor o‘simliklari va ulardan foydalanish” Moskva 1967.
- 7.Xolmatov.H.X. Ahmedov.O‘.A. Farmakognoziya I-II tom Toshkent 2007.
- 8.Xolida Mirfayoz qizi.Mahkamov.S.M. “Mijozingizni bilib davolaning” Toshkent 1997.
- 9.O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi- Toshkent 2005.
10. R.M.Tashtemirov, & N.P.Dauletbaev. Feeding in postnatal ontogenesis of turkeys. Ustozlar Uchun, (2024). 1(1), 32–34. Retrieved from <https://pedagogs.uz/index.php/01/article/view/1618>
11. Nursultan Paraxatovich Dauletbaev (2024). Morphometric characteristics of leg bones and muscles during postnatal ontogeny of turkeys under different natural conditions literature review. Science and innovation, 3 (Special Issue 47), 698-701. doi: 10.5281/zenodo.13859984
12. Nursultan Paraxatovich Dauletbaev Morphometric characteristics of leg bones and muscles during postnatal ontogeny of turkeys under different natural conditions literature review. Science and innovation, (2024). 3 (Special Issue 47), 698-701. doi: 10.5281/zenodo.13859984

YIRIK SHOXLI MOLLARDA PODODERMATIT KASALLIGINING ETIOPATOGENEZI, TARQALISHI VA UNI DAVOLASH

Dauletabaev N.P, Tajimuratov Q.

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali

dauletabaev.nursultan@bk.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada yirik shoxli mollarda uchraydigan tuyuq kasalligiga xos yiringli pododermatitning etiologiyasi, diagnostikasi davolash va oldini olish chora-tadbirlari bo'yicha adabiyotlar tahlili asosida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: yirik shoxli mollar, tuyuq kasalliklari, oqsash, yaralar, klinik belgilar, davolash, oldini olish.

Mavzuning dolzarbligi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoniga 2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi Milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash maqsadida "Chorvachilik ozuqa bazasini kengaytirish va ishlab chiqarish" hajmini 1,5-2 barobar ko'paytirish, chorva mollari bosh sonini ko'paytirish va mahsuldorligini oshirish bo'yicha yangi loyihalarni amalga oshirish ko'zda tutilgan.

Bugungi kunda dunyoning aksariyat mamlakatlarida qoramollar orasida oyoqlarning distal bo'limi kasalliklari keng tarqalishi kuzatilmoqda. Chorvachilik komplekslar va fermalari sharoitlarida saqlanayotgan qoramollar jarrohlik kasalliklarining 90%-ini oyoq kasalliklari tashkil etadi va bunday kasalliklar jarohat, bo'g'im-pay cho'zilishlari, tuyuqlarning yiringli-nekrotik zararlanishi ko'rinishlarida namoyon bo'ladi [7].

Shu boisdan, respublikamizning mintaqaviy sharoitlarini inobatga olib, qoramollar tuyuq kasalliklarining uchrash darajasi, tashxis qo'yish, etiopatogenezini aniqlash, davolash va oldini olishning samarali uslub va vositalarini ishlab chiqish va takomillashtirish maqsadida olib borilayotgan tadqiqotlar dolzarb bo'lib hisoblanadi.

Tadqiqot natijalari. Pododermatit bevosita katta qorin atsidozining asorati bo'lib, u kasallik sindromini davolashdan keyin ham kuzatilishi mumkin, chunki ovqat hazm qilish jarayonining buzilishi natijasida katta qorinda nobud bo'lgan bakteriyalar, gistamin holda qonga o'tadi va pododermatitning bevosita sababchisi bo'lib xizmat qiladi [6].

A.A.Stekolnikov takidlashicha, betonli polda boqilgan sut yo'nalishidagi sigirlarda tuyuqlararo bo'shlig'i dermatiti 25%, aseptik padodermatit - 20%, yiringli padodermatit va laminitlar - 10%, rustergols yarasi - 12%, tuyuq deformatsiyasi - 55-60% ni tashkil etgan [1].

Tadqiqotchilar ma'lumotlari bo'yicha 93,5-95,2 % holatda hayvonlarning orqa oyoqlari, 10-12 % holatda esa ikkala oyog'iining ham zararlanishi aniqlangan. Shuningdek, hayvonlarda tuyuq kasalliklarining ichida yiringli pododermatit hamda yiringli-nekrotik yaralar ustunlik qiladi va ular qayd etilgan umumiy holatlarning 40-50 foizini tashkil etadi [2].

Qoraqalpog'iston Respublikasidagi ayrim qoramolchilik fermer xo'jaliklaridagi tuyuq kasalliklarining uchrash darajasi jami 344 bosh qoramollardan 14 tasida (4,06%) uchragan [10, 11].

Golshtin-friz zotli sigirlarning yiringli pododermatit kasalligini davolashda muolaja tarkibiga qo'shimcha ravishda vetosporin probiotiki qo'llanilgan bo'lib, tadqiqotlar natijasida vetosporin ichirilgan kasal sigirlarda murakkab bakteriostatik kukunli bog'lamadan foydalanilganida, hayvonlar barmoq sohasidagi yiringli-

некротик jarayonni bitishi hamda regenerativ-tiklanishini 4-5 kunga tezlashtirishi, patologik jarayon kechayotgan joyga ishlov berish sonini vetosporin berilmagan kasal sigirlarga nisbatan 3 martadan 2 martagacha kamaytirishi aniqlangan [3, 11].

Yiringli pododermatit bilan kasallangan qoramollarni davolashda sorbentlarni qo'llash birmuncha yaxshi samara berib, bunda qonning morfologik ko'rsatkichlarining tez tiklanishi, hususan eritrotsitlar va gemoglobin miqdorlarini oshishi shikastlangan to'qimalarda yoki umuman organizmda oksidlanish-qaytarilish jarayonlarining jadal ko'tarilishidan dalolat beradi [4, 5].

Oyoqlarning distal bo'limi kasalliklarini asosiy sabablari hayvonlarni saqlash sharoiti va oziqlantirishni almashuvi, shuningdek poda guruhlarini shakllantirishda xatolikka yo'l qo'yilishi hisoblanadi. Muallifning fikricha, ixtisoslashtirilgan xo'jaliklarda sut ishlab chiqarishda sanoat usullarini qo'llanilishi hayvonlarni saqlash sharoitini sezilarli darajada o'zgartirgan va organizmda fiziologik yukni birmuncha oshirgan [8].

Xulosa. Adabiyot ma'lumotlarini tahlili asosida xulosa qiladigan bolsak, qoramollar oyoqlarining tuyoq kasalliklari juda keng tarqalgan bo'lib, avvalambor hayvonlarni saqlash sharoiti va oziqlantirilishining buzilishi bilan bog'liq ravishda sezilarli katta iqtisodiy ziyon keltiradi hamda yuqumsiz va yuqumli etiologiyaga ega. Qoramollar oyoqlarining distal bo'limi patologiyalarini davolash va oldini olishda turli davolash usullari qo'llanilib kelingan. Ammo, Respublikamizda chetdan olib kelingan mahsuldor qoramollarda ko'p uchraydigan yiringli pododermatit kasalliklarini etiologiyasi, patogenezi, patomorfologik o'zgarishlari, ularni davolash va oldini olishning maqbul usullari yetarlicha o'rganilmagan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Стекольников А.А., Заболевания конечностей у крупного рогатого скота при интенсивном ведении животноводства, пути профилактики и лечения /А.А.Стекольников // Актуальные проблемы ветеринарной хирургии/ Материалы международной научной конференции-Ульяновск: ГСХА 2011, С.-3-9

2. Гугкаева М.С., Чеходариди Ф.Н. Комплексная терапия гнойного пододрматита у коров // Вестник ветеринарии. - 2011. -№ 57. –С. 67-72.

3. Гимранов В.В., Гиниятуллин И.Т. Особенности и способы применения пробиотиков при гнойно-некротических процессах у крупного рогатого скота. Актуальные вопросы и пути их решения в ветеринарной хирургии. Материалы Международной научно-практической конференции, посвященной 80-летию со дня рождения профессора Э.И.Веремея. Витебск, ВГАВМ, 2019. –С. 20-21.

4. Nursultan Paraxatovich Dauletbaev (2024). Morphometric characteristics of leg bones and muscles during postnatal ontogeny of turkeys under different natural conditions literature review. Science and innovation, 3 (Special Issue 47), 698-701. doi: 10.5281/zenodo.13859984

5. Dauletbaev N., Shakilov U. Changes in postnatal ontogenesis of turkeys. Res. Jou. Ana.Inv. 2024, 5, 1-4.

6. Калюжный И.И., Баринов Н.И. Нарушение функции печени у коров голштино-фризской породы // Ветеринарный врач. -2015. -№ 2. –С. 47-54.

7. Марин Э.М., Ляшенко П.М., Сапожников А.В. Клиническая и патоморфологическая характеристика гнойных пододерматитов у крупного рогатого скота. Вестник Ульяновской государственной сельскохозяйственной академии. Ульяновск, 2015. –С. 123-132

8. Панко И.С., Издепский В.И., Тыхонюк А. и др. Профилактика травматизма крупного рогатого скота // Ветеринария. - 1990.- № 5. –С. 58-60

9. Tashtemirov, R. M. Dauletbaev, N.P. Qoraqalpog'iston respublikasi ayrim qoramolchilik xo'jaliklarida tuyuq kasalliklarining uchrash darajasi. Agrobiotexnologiya va veterinariya tibbiyoti ilmiy jurnali, (2022). 205-207.

10. Tashtemirov, R. M., & Dauletbaev, N. P. U. Qaraqalpaqstan respublikasinda ayrim qaramalshiliq xojaliqlarindaǵı tuyuq kesellikleriniń ushrasıw dárejesi. In International conferences (2022, October). (Vol. 1, No. 13, pp. 100-103).

11. Таштемиров, Р., Даулетбаев, Н., & Мирзайев, С. Распространение болезней копытец у крупного рогатого скота в некоторых животноводческих хозяйствах самаркандской области. Евразийский журнал медицинских и естественных наук, (2022). 2(13), 45-49.

12. Erimov Sirijiddin Farkhodovich, & Norbaeva Maftuna Bakhadir qizi. Some biological features of the stage of progression of cystogony of the causative agent of dichroceliosis. Intent Research Scientific Journal, (2023). 2(10), 70–77. Retrieved from <https://intentresearch.org/index.php/irsj/article/view/228>

GASTROFILYOZ - OTLAR (*EQUUS FERUS CABALLUS*) HAVFLI ENTOMOZ KASALLIGI

Erimov S.F.¹, Erimov F.F.², Jumaniyozova J.M³.

¹SDVMChBU Nukus filiali

²Rossiya Federatsiyasi DGTU

³Nukus sh. 2-sonli kasb-hunar maktabi.

Annotatsiya. Ushbu maqolada *Equidae* oilasiga mansub hayvonlarning xususan, ot (*Equus ferus caballus*) larning hazm tizimida lichinkalari parazitlik qilib, miaz yara chaqiruchi *Gasterophilidae* oilasiga mansub hashorotlarning biologik rivojlanishi, parazitlik xususiyatlari, gastrofilliozning o'ziga xos klinik belgilari hamda patanatomik o'zgarishlari, kasallik diagnozi va oldini olish, qarshi kurash chora-tadbirlari bo'yicha ilg'or yondashuvlar to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.